

# PEDAGOGIK MAHORAT

2/2013

ISSN 2181-6883



FARZANDLARIMIZ BIZDAN KO'RA KUCHLI, RIJIMLI, DONO  
VA ALBATT AXTELI BOTISHLARI SHARTI! — J. A. Karimov

Matolarga gul bosish qimmatbaho ipak gazmollarni ishlab chiqarishda qo'llanilgan. Abrband usuli bilan iplarni o'rabi-bog'lab qo'yishdan iborat mazkur murakkab va sermehnat jarayon, asosan, Farg'onaviy shaharlari va Samarcand, Buxoroda xonatalas to'qishda qo'llanilgan.

Bularning hammasi XIX-XX asrlarda mahalliy gazlamalarni badiiy bezash san'ati xilma-xilligi va o'ziga xos ekanligidan, O'rta Osiyo xalq hunarmandlarining nozik dididan dalolat beradi. Shu boisdan ham to'quchchi ustalarining nafis va pishiq mahsulotlari mahalliy bozorlar chegarasidan chiqib, butun O'rta Osiyo va undan tashqari mamalakatlarda xarid qilinib, olib ketilgan va u yerlarda juda mashhur bo'lган.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. I.A. Karimov. "Bizdan ozod va obod vatan qolsin". T.: "O'zbekiston" 1997.
2. I.A. Karimov. "Milliy istiqbol masifikasi - xalq e'tiqodi va kelajakka ishonchdir". T.: "O'zbekiston", 2000
3. I.A. Karimov. "Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch" T.: "O'zbekiston" 2008.
4. S. Bulatov. "Xalq amaliy bezak san'ati" T.: "Mehnat" 1997
5. D.A. Nozilov. "O'rta Osiyo dizayni tarixidan" T.: "O'qituvchi" 1998.
6. N. Sodiqova. "O'zbek milliy kiyimlari tarixi" T.: "Sharq" 2003.
7. Uy-ro'zg'or ensiklopediyasi.

#### РЕЗЮМЕ

В этой статье говорится об истории происхождения народного прикладного художественного искусства украшений, вышивки из разных материй, золотошвейных изделий, узоров в Средней Азии. А также о видах различных тканей и о методах их изготовления.

#### SUMMARY

The given article presents the history of origin national applied arts of jewelry, embroidery with different clothes, golden embroidery and ornaments of Central Asia including the different types fabrics and the ways of their production.

Sitora UMAROVA

#### QADIMGI GREK HAYKALTAROSHLIGI VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Haykaltaroshlik asarlari uch o'chamidan iborat bo'lib, hajm (balandlik, en, uzunlik) dan iborat. Haykaltaroshlik asarlari turli tomonidan ko'rishga mo'ljalangan. Bu soha uchun tosh, metall, bronza, yog'och, loy va shu kabi materiallar zarur. Tarixdan ma'lumki, tasviriy san'atning bu turi qadim zamonlardan buyon mavjud. Hatto qadimgi antik dunyo san'atini ham haykaltaroshlik asarlarisiz tasavvur etish qiyin. Arxeologik qazilmalar natijasi fikrimizning isbotidir. Yoxud uyg'onish davri haykaltaroshligiga bir nazar solsak, ajoyib va mukammal ko'rinishga ega bo'lgan haykaltaroshlik asarlarini ko'rib, hayratlanmaslikning iloji yo'q.

Dalil sifatida, Donatello, Mikelangeloning "David" nomli haykallarini keltirishimiz mumkin. Haykal dushman bilan olishishga tayyor turgan afsonaviy xalq qahramoni David ismli cho'pon yigit oorazi sifatida namoyon bo'lib, uning maqsadi va his-tuyg'ularini turgan holatidan, ya'ni bir oyog'i oldindan, butun gavdasi old tomonga intilayapti, yovga nisbatan nafratini ko'zlaridagi ma'noda yaqqol ko'rish mumkin. Umuman olganda, muallif badiiy obrazlar orqali qattiq yoki yurnshoq materiallardan jonli siymoni yaratadi. Bunday tarzda yaratilgan obrazlar o'zining maqsadini to'la mujassam etish uchun me'morchilik inshootlarida, maydonlarda, muzey, tarixiy joylarda va hatto qabristonlarda ham o'rnatiladi.

Haykaltaroshlik asarlari agar me'morchilik bilan bog'liq bo'lsa, unda uning mayda hajmga ega bo'lgan barel'yef va gorel'yef turlari qabul qilinadi. Barel'yefda hajmning 1/3 qismi, gorel'yefda 2/3 qismi yuzaga nisbatan bo'rtib turadi. Haykaltaroshlikning bunday usullari binoning tashqi fasad va

frontonlarida, deraza, eshik atroflarida, binoning ichki qismlaridagi karniz, potolok (shift) dagi plafonlari atrofida o'z aksini topadi.

Haykaltaroshlik haqida so'z yuritar ekanmiz, albatta, klassika davri haykaltaroshi Elefter shahrida yashab faoliyat ko'rsatgan Miron haqida so'z aytmuoq juda shart. Haykaltaroshning ijodi, asosan, Attila inshootida er.av. 5 asr ikkinchi va uchinchi choragida ko'zga tashlanadi. U go'zal garmonik va hayotiy obrazlar yaratishga intilib, butunlay arxaik aprintsiplarni chetlab o'tdi. Uning ajoyib asarlaridan biri er.av. 450 - yilda "Disk uloqtiruvchi" nomi bilan namoyon bo'ldi. Miron haykaltaroshlikda aqlan va jismonan go'zal o'spirin yigitni disk irg'itayotgan holatda tasvirildi (2-surat). Uning qanchalik bavuvvat va chiniqqan ekanligini egilib turgan gavdasi-yu bo'rib chiqqan muskullarida ko'rish mumkin.

Poliklet ijodida inson nisbatlari haqida yozilgan nazaryi manbalar ham mavjud va u kanon nomi bilan ma'lum. Muallif "Dorifor" statuyasini, o'zining mana shu "Kanon" (bilim) qonunlariga amal qilgan holda bajargan.

Polikletning navbatdagi statuyalaridan biri "Diadumen" (er. av. 420-410-yil) haykali bo'lib, unda kurashda g'olib bo'lgan yigitcha gulchambarlar qo'ynida aks ettirilgan. Er. av 5-asrning oxiriga kelib klassika haykaltaroshligi doirasida o'zgarishlar yuz berdi.

Idealistik oqim vakillaridan biri Leoxar bo'lib, u Makedonskiy koshonasida saroy ustasi sifatida faoliyat ko'rsatgan. Leoxar uchun shuhrat olib kelgan yagona asar "Apollon Belvederskiy" statuyasıdir (e. a. 340-yil). Uning stol ustida quyladigan statuetkasi kichik hajmli Gerakl haykali mavjud bo'lib, bu haykal A. Makedonskiy uchun tayyorlangan. Lisipp o'zining barcha istaklarini shu yosh yigit obrazida umumilashtirdi va bu asar hozir "Apoksimen" nomi bilan yuritiladi. Bu statuyada kurashdan so'ng o'z gavdasini qum bilan tozalayotgan pahlavon yigit obrazini ko'ramiz (e.a. 325-300-yillar).



Leoxar Belveder. Apollon haykali



Miron. Disk otuvchi



Lisipp. Agias-grek atleti

Asarda atletikachi yigit og'ir kurashdan so'ng yengil nafas olayotgani murakkab burilishi bilan tomoshabinni kuzatayotganini darhol sezsa olish mumkin. Lisipp ana shunday holatlarni o'z asarlarida ustalik bilan yetkaza olgan. Xuddi shunday asarlardan biri "Dam olayotgan Germes" (e.a. 330-320-yil) dir. Bundan tashqari uning Gerakl qahramonlari turkumida ajoyib san'at asari – "Sher bilan olib shayotgan Gerakl" haykalini ko'rsatish mumkin.

Lisipp ijodida portret ham muhim o'rinn egallaydi. A. Makedonskiy portreti u yaratgan portretlar ichida muhim shahmiyat kasb etadi. U portretida zamonasini qahramonining ichki dunyosini ochib berishga harakat qilgan.

Bundan tashqari, e.a. 330-yilda Lisippling shogirdi tomonidan qo'l jangi jangchisi portreti ham yaratilgan. Aynan bu davrda, real hayot voqealaridan yuz o'girganlar ham bo'ldi. Shu sababli ham haykaltaroshlik o'zidagi tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotib, klassika davrining so'nggi yillarda o'z qadr-qimmatini yo'qota boshlagan.

Garchi shunday bo'lsa-da, yaratilgan har qanday haykaltaroshlik asari o'zida muntazam yangilanib, davr nafasi bilan sug'orilgan, yurtning ajoyib pahlavon yigitlari jasorati, mardligi haqida hikoya qilgan.

## МУНДАРИЖА

### СОГЛОМ ТАНДА СОГЛОМ РУХ

М. ИБРАГИМОВ. Уч босқиччи спорт мусобақалари – спортчиаримиздинг олимпиадаларга тайёр бўлиш гарови....3

### ПЕДАГОГИКА ВА ПСИХОЛОГИЯ

И. КОЗУБЦОВ. Состав векторной модели компетенции человека с творческой и креативной составляющей мышления.....5
М. САДОВСКИ, О. АСАФАЙЛО. К вопросу о социальной адаптации лиц с ограниченными возможностями здоровья средствами тандерапии .....9
У. БЕГИМКУЛОВ, Р. ИСЯНОВ. Условия создания среды по формированию креативного потенциала педагогических кадров .....13
Ғ. НОРМУРОДОВ, О. ИКРОМОВ. Тарбияси "кайин" ўсминаларга психологик ёрдамни таъсир этишининг ўзига хосилиги .....16
Б.МИРЗАКУЛОВ, Ф.БОБОЖОНОВА, Ш.САЛЬДУЛЛАЕВ, Ш. БОБОЖОНОВ. Ўзбекистон Республикаси Конституциясини ўрганинг фаниди "Инсон ҳукукалари" мавзусини ўтишда замоний педагогик технология усулиларидан фойдаланиши .....22
А. АЛИМОВ, А. АЛИМОВ. Махсус фанларни ўқитнича мустақил характерга йўналтиришга ўқитниш технологияси .....24
Н. АЗИМОВА. Малнаний-ахлоқий тарбиялашда жамонт ташкилотларининг ўрни .....29
Ш. НУРМУРАДОВА. Наши ценности в достижении благополучия и процветания народа .....31
Ш. КУЛИЕВА, З. РАСУЛОВА. Кашиб таълими ўқитувчиларини тайёрлаш жараёнга тизимиш ёндашув .....35
З. ХАСАНОВА. Бўлажак кашиб таълими ўқитувчиси фаолият маҳоратининг айрим йўналтириши .....38

### ТИЛ ВА АДАБИЕТ

О. САФАРОВ. Таъкираларда устод Айнин тавсифи .....41
Д.А. БАРАКАТОВА. Коммуникативно-интерактивный метод обучения .....46
Ф. САФАРОВ, Н. МАЖИДОВА, Ф. САЛИМОВА. Бошшагич синф ўқувчиларига маҳкум тушунчаларин образ воспитасида тушунтириши .....50
Н.ГАФУРОВА. Использование информационных технологий для мотивации на уроках иностранного языка .....53
Н. РАХАТОВА. Наша глашач цель – воспитание гармонично-развитого поколения .....55
Д. МАҲМУДОВА. Талибаларнинг мустақил юқидий фаолиятина ривожлантиришга кўп сенса қутувчалар иштирокидаги ўйинларга донор масалалар .....57
Р. КАДЫРБАЕВ. Использование инновационных технологий на занятиях геометрии в путах .....61

### ТАБИНИЙ ФАНЛAR

Ю. БЕШИМОВ, У. СУНОВ, М. ҚУРБОНОВ. Биогаз ва биогумус олиница юнити замбуруларининг фаолигиги ошириши .....63
А. АХМЕДОВ, У. НЕ'МАТОВ, У. ВЕКРО'ЛАТОВ, С. ЮМАЕВ. Fizika ta'limini modernizatsiyalashtirma mustaqil ta'limning o'rni .....65
Н. МУРОДОВ, Ш. МУРОДОВ, А. МУРТАЗОЕВ. Исследование энергетических показателей корпусов двухъярусного шуга .....67

### ИЖТИМОИЙ ФАНЛAR

Ф. АБДУЛЛАЕВА. Мамлакатимизни демократик ингиллиши жараёнида ёшларниң ҳуқуқий маддийтини шакллантириши .....70
О. ЗАРИПОВ. Чокан Валиханов – Қашгарнинг йирик таджикотини .....73
А. ТОЛХО'ЈАЕВ, Р. QOBILJONOV. Maeng'it amirlari davrida davlat bosqaruviga va tashviqiy bayut .....75

### САНЪАТ

Д. ЭШОВА. Халк хунармандчилиги фанни ўтишда матолар тархиони ўрганишингиз элементи .....80
С. УМАРОВА. Qadimgi grek haykallaroshligi va uning tarbiyavuty ahamiyati .....83

### ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ВА СПОРТ

К. АРСЛНОВ, Б. ХЎЖАЕВ. Миллый кураш турлари ва уни ўқитни методикаси фанни инновацион технологиялар асосида ўрганиша .....85
------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------

### КОМПЬЮТЕР ТАЪЛИМИ

М. ИШМАМАТОВ, Р. КАДЫРБАЕВ. Дистанционное обучение, как средство обмена учебной информацией на расстоянии .....88
Ш. КУЛИЕВА, Х. ХАМОРОЕВА. Бўлажак мутахассисларининг ахборот технологиялари асосида кашиб-педагогик компетентантини шакллантириши .....90
Н. АЛИМОВ, Ҳ. ХАЛИМОВ. Педагог ва таълим олувчининг биргалиядаги фаннинг ахборот-коммуникацион таълим мухитини лейихдалиш асоси .....93